

## KORXONALARNING RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI BELGILASHDA IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

B.N. Muydinov, i.f.n., dots.,

*University of economics and pedogogy NOTM O'quv ishlari  
bo'yicha prorektori, Andijon davlat universiteti  
"Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** Maqola korxonalarning rivojlantirish istiqbollarini belgilashda iqtisodiy tahlilning metodidan foydalanish va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada, korxonalarning rivojlantirish istiqbollarini belgilashda iqtisodiy tahlilning metodidan foydalanish imkoniyatlari va tahlil metodidan foydalanishning o'ziga hos xususiyatlari ochib berilgan. Iqtisodiy tahlil metodi nima? Iqtisodiy tahlilning metodidan foydalanish orqali korxonaning rivojlantirish istiqbollari qanday belgilanadi? Korxonaning rivojlanish istiqbollarini belgilashda iqtisodiy tahlil o'tkazishning qaysi usullaridan foydalanish ko'proq ijobiy natija beradi? Kabi savollarga javoblar berilgan.

**Kalit so'zlar:** dialektika, uslubiy asos, jonli mushohada, abstrakt tafakkur, amaliyot, metod, mahsulot hajmining o'sishiga tahsir ko'rsatuvchi omillar, sabab-oqibat aloqalarini o'rganish, ko'rsatkichlar tizimi, ijobiy va salbiy omillar, korxona faoliyatiga bog'liq (ichki) omillar, bog'liq bo'limgan (tashqi) omillar, samaradorligini oshirish, deduktiv usul, induktiv usul.

**Аннотация.** Статья посвящена изучению использования метода экономического анализа и его особенностей при определении перспектив развития предприятий. В статье раскрываются возможности использования метода экономического анализа и особенности использования метода анализа при определении перспектив развития предприятий. Что такое метод экономического анализа? Как определить перспективы развития предприятия с помощью метода экономического анализа? Какие методы экономического анализа дадут более положительный результат при определении перспектив развития компаний? Даются ответы на такие вопросы.

**Ключевые слова:** диалектика, методологическая основа, живое наблюдение, абстрактное мышление, практика, метод, факторы, влияющие на рост объема продукции, изучение причинно-следственных связей, система показателей, положительные и отрицательные факторы, (внутренние) факторы, связанные с деятельностью предприятия, независимые (внешние) факторы, повышение эффективности, дедуктивный метод, индуктивный метод.

**Abstract.** The article is devoted to the study of the use of the method of economic analysis and its specific features in determining the development prospects of enterprises. In the article, the possibilities of using the method of economic analysis and the specific features of using the method of analysis are revealed in determining the development prospects of enterprises. What is the method of economic analysis? How to determine the development prospects of the enterprise by using the method of economic analysis? Which methods of economic analysis will give a more positive result when determining the company's development prospects? Answers to such questions are given.

**Keywords:** dialectic, methodological basis, live observation, abstract thinking, practice, method, factors affecting the growth of product volume, study of causal relationships, indicator system, positive and negative factors, (internal) factors related to enterprise activity, independent (external) factors , increase efficiency, deductive method, inductive method.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalar faoliyatini rivojlanishiga keng yo'l ochib berildi. Natijada bugungi kunga kelib, korxonalar o'rtasida raqobat shu darajada rivojlandiki, ular o'z faoliyatlarini doimiy ravishda tahlil qilib bormas ekanlar, raqobatda yutqazib, faoliyatlari bankrot holatiga borib, faoliyatlarini to'xtatish holatlariga tushib qolishlari mumkin. SHuning uchun korxonalar o'z faoliyatlarini doimiy rivojlantirib borishlari, erkin raqobat sharoitida sifatli va hamyonbop mahsulot ishlab chiqarishlari uchun doimiy ravishda o'z faoliyatlarini iqtisodiy tahlil qilib borishlari talab qilinadi.

Iqtisodiy tahlil dialektikani o'rghanishning muhim vositasihisoblanadi. Mahlumki, bilish nazariyasi shunga asoslanganki, u ham bo'lsa, obhektiv(mavjud) dunyoni bilishdir. Bu degani bilish jarayoni dialektik xususiyatga ega bo'lib, voqelikning inhikosidir. Bilish nazariyasining mantiqiyligi dialektik tarzda quyidagi formulada aks etadi, yahni: jonli mushohada, abstrakt tafakkur, amaliyot.

Metod juda keng mahno va tushunchaga ega. Umuman metod deganda real voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o'rghanishga yondashish usuli tushiniladi.

Iqtisodiy tahlil metodi deganda esa, biznes-rejaning bajarilishiga va mahsulot hajmining o'sishiga tahsir ko'rsatuvchi omillarni sistemali va kompleks tarzda o'rghanish, o'lchash va umumlashtirish usuli bo'lib, ular hisob, hisobot va hisobdan tashqari mahlumotlarni maxsus usullar orqali qayta ishlanilib, amalga oshirilishi tushuniladi.

Mahlumki, tahlil qilinayotgan obhektning faoliyatiga ichki va tashqi omillar tahsir ko'rsatadi. SHuni tahkidlash lozimki, tahlilda omillar deganda u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ijobiy hamda salbiy tahsir ko'rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar nazarda tutiladi. Sabab - termini nisbatan keng ko'lamdagi kompleks omillar tizimiga nisbatan qo'llanilib, bu kompleksni tashkil etuvchilar esa omillar deb ataladi.

Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri uning nafaqat sabab-oqibat aloqalarini o'rganish, balki ularga miqdoriy tavsif berishi, yahni faoliyat natijalariga omillar tafsirini miqdoran o'lchashni tahminlash sanaladi. Bu analitik tadqiqotlar darajasini oshiradi.

Iqtisodiy tahlilning muhim metodologik jihatni korxonaning xo'jalik faoliyatidagi iqtisodiy jarayon va hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini kompleks, tizimli tadqiq qilish uchun zaruriy sanaluvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va undan foydalanish hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyati va uning natijaviy ko'rsatkichlariga tafsir etuvchi omillar beqiyosdir. Ammo, ularning barchasini hisoblash maqsadga muvofiq emas. Iqtisodiy tahlil jarayonida omillarning ayrim tomonlari, xususiyatlarini inobatga olib turkumlash va har birini alohida - alohida tahriflash lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda omillar qator belgilari bo'yicha tasniflanadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijobiy va salbiy omillar;
- korxona faoliyatiga bog'liq (ichki) omillar, bog'liq bo'limgan (tashqi) omillar;
- ishlab chiqarishning intensiv va ekstensiv omillari;
- ishlab chiqarish va muomala jarayonlari omillari.

Xo'jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy tafsir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy tafsirini tugatish rezervlar deb ataladi.

Deduktiv usul, asosan moliyaviy-iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi. Bunda avvalo xo'jalik faoliyatini belgilovchi umumiy ko'rsatkichlar o'rganilib, so'ngra ular bo'laklarga bo'linadi. Ko'rsatkichlarni bo'laklarga bo'lish aslini olganda tahlil demakdir.

Induktiv usul ko'pincha texnik-iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi, yahni avval, ayrim olingan ish uchastkalaridagi ko'rsatkichlar har tomonlama tekshirilib, so'ngra ana shu aniq ko'rsatkichlardan korxonaning xo'jalik faoliyatini belgilovchi umumlashgan iqtisodiy ko'rsatkichlar darajasiga chiqiladi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlarinianiqlash tahlilning asosiy maqsadini ham belgilaydi. Yahni, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va korxonaning moliyaviy natijalarini hamda holatini yaxshilash bo'yicha subhektda mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyatga tatbiq etish choratadbirlarini belgilash tahlilning muhim vazifasi hisoblanadi.

Tahlilda har bir tarkib bo'yicha mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlar aniqlanib ularga baho beriladi. Jumladan, ishlab chiqarishda mehnat resurslari bo'yicha imkoniyatlar, mehnat vositalari va ulardan samarali foydalanish bo'yicha imkoniyatlar, mehnat predmetlari va ulardan samarali foydalanish bo'yicha imkoniyatlar, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yuzasidan imkoniyatlar mavjudligi va shu kabilarni belgilash mumkin.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ichki imkoniyatlari - resurslardan foydalanish bo'yicha korxonada mavjud bo'lgan, biroq ishga solinmagan zaxiralarning mavjudligidan tashkil topadi.

Bu imkoniyatlar birinchi navbatda korxonaning mehnat vositalari, texnologiyalari va zamonaviy mehnat vositalari bilan qurollanish darajasiga hamda ularning holatiga bog'liq.

Iqtisodchi olimlarning fikricha: — Imkoniyat – korxona iqtisodini kuchaytirishning muhim vositasidir. Agarda subhektda ulardan to'liq va to'g'ri foydalanilsa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan muhim ijobiy natijalarga erishiladi<sup>1</sup>.

Demak, ishlab chiqarish samaradorligining oshirish ko'p jihatdan mavjud zaxiralardan foydalanish holatiga ham bog'liq. Yahni tahlil natijasida korxonada foydalinilmay turgan ichki zaxirani aniqlash va qo'shimcha xarajatlarsiz mavjud foydalinilmay turgan imkoniyatlarni ishga solish orqali, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga erishish yoki sifatini yaxshilashi mumkin bo'ladi. Masalan, tikuvchilik ishlab chiqarish korxonasida 10 ta tikuvchilik mashinasi mavjud bo'lib, ularni har birida 20 donadan erkaklar ko'y lagi ishlab chiqarish imkoniyati bo'lib, bir kunda  $10 \times 20 = 200$  (ikki yuz) dona mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Lekin biz tahlil qilayotgan korxonada kuniga 150 dona mahsulot ishlab chiqarilib, kunlik ishlab chiqarish rejasi 75%ga bajarilmoqda. Tahlil natijasida biz bunga tahsir qilayotgan omillarni o'rjanib chiqamiz va foydalinmay kelayotgan ichki imkoniyatlarni ishga solish orqali mahsulot hajmini oshirishga erishamiz.

Korxona biznes rejalarini belgilashda barcha imkoniyatlar hisobga olinadi va ularning realizatsiyasi reja bajarilishi davomida amalga oshiriladi. Sabablari va unumsiz harajatlarni bartaraf etish tufayli erishiladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari faoliyatdagi texnologiyalarni takomillashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda uning tashkiliy texnikaviy darajasini yaxshilash, mehnatni tashkil etish, boshqaruvni takomillashtirish kabilar orqali ham belgilanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda makro darajadagi imkoniyatlarning tarkiblashni quyidagi uch guruhi ajratiladi<sup>2</sup>:

1. Iqtisodiyot.
2. Tarmoq.
3. Ichki xo'jalik imkoniyatlari.

Korxonada har bir imkoniyatdan maqsadga muvofiq foydalanish yo'llari ishlab chiqilishi zarur. Imkoniyatlar faoliyatni intensiv rivojlanishiga ijobiy tahsir ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Ишонқулов Н.Ф. ва бошқалар. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. –Т.: Саностандарт, 2014. -264 б.

<sup>2</sup> Ишонқулов Н.Ф. ва бошқалар. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. –Т.: Сано-стандарт, 2014. -270 б.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari faoliyatdagi texnologiyalarni takomillashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda uning tashkiliy texnikaviy darajasini yaxshilash, mehnatni tashkil etish, boshqaruvni takomillashtirish kabilar orqali ham belgilanadi.

Korxonada har bir imkoniyatdan maqsadga muvofiq foydalanish yo'llari ishlab chiqilishi zarur. Imkoniyatlarni aniqlash mexanizmi korxonaning aniq shart-sharoiti va oldiga qo'yan vazifalariga tayanadi. Iqtisodchi olim T.SH.SHog'iyosov tomonidan uning umumiy tuzilishi quyidagicha ko'rsatilgan<sup>3</sup>:

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi bosh bo'g'in aniqlanadi. Ularga sarf-harajatlarni kiritish mumkin, chunki, mahsulot tannarxida ularning ulushi yuqori. Sarf-xarajatlarni qisqartirish tufayli katta iqtisodiy samaraga erishiladi;

- ishlab chiqarishdagi — tor tomonlar aniqlanadi, ular ishlab chiqarishning o'sish surhatlari, tannarxini pasaytirishga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish tipi hisobga olinadi. Masalan, keng ko'lamli ishlab chiqarishda rezervlarni belgilangan ketma-ketlikda aniqlash tavsiya etiladi: mahsulot, yarim tayyor mahsulot, detal, operatsiya jarayoni; yakka tartibdagi ishlab chiqarishda ishlab chiqarish tsiklining ayrim operatsiyalari bo'yicha aniqlanadi;

- rezervlar mahsulotning hayot tsiklini barcha bosqichlari yoki obhektlari (loyihalashtirish, ishlab chiqarish, sotish) bo'yicha aniqlanadi;

- moddiy resurslardan iqtisod, yahni, mavjud mehnat, uskunalardan foydalanishda iqtisodga erishgan taqdirdagina rezerv komplekt deb hisoblanadi.

Ichki xo'jalik rezervlari deb, korxona faoliyati natijalarini o'rganish orqali aniqlangan imkoniyatlar va ulardan foydalanishga aytildi. Bunday rezervlarga ish vaqtidan to'liq foydalanmaslik, ular qatoriga ishni tashkil etish va ishlab chiqarish texnologiyalarining past darajada bo'lishi, xo'jasizlik va hokazolar tufayli ish vaqtini yo'qotilishi, moddiy resurslardan ortiqcha sarflarga yo'l qo'yilishlari kiradi.

Iqtisodiy tahlil usuli mazkur predmetni o'rganish jarayoniga umumiy jihatdan yondashuvdir. SHu sababli, tahlil usulini unga bo'ysinuvchi maxsus usullari bilan aralashtirib bo'lmaydi. Zero, aniq shart - sharoit natijasida u yoki bu usullarning o'zgarishi ehtimoldan xoli emas.

Iqtisodiy tahlil usulining eng muhim xususiyatlari quyidagilardaniborat:

1. Xo'jalik faoliyatiga tahsir etuvchi texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish va barcha omillarni tekshirishni muntazam va kompleks tarzda o'tkazishga yondoshuv tahlil usulining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda muntazam tahlilni kompleks tahlil bilan almashtirish aslo mumkin emas. Obhektni ierarxik usul (bo'ysunish tartibi) orqali boshqarish, masalan, tsex korxonaning, korxona birlashmaning, birlashma tarmoqning bir qismi va hokazo

<sup>3</sup> Шогиёсов Т.Ш. Комплекс иқтисодий таҳлил. Дарслик. -Т.: Фан ва технология, 2012.

sifatida o'rganish sistemali tahlilga misol bo'ladi. Kompleks tahlilda barcha ko'rsatkichlar o'rganiladi.

2. Tahlil usulining o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan biri – iqtisodiy ko'rsatkichlarning har tomonlama bir-birlari bilan sababiy bog'lanishida ekanligidir. Bu borada tahlilning vazifasi ana shu sabablarni aniqlashdir. SHuni tahkidlash kerakki, hatto ayrim olingan iqtisodiy ko'rsatkichga bir qancha sabablar tafsir ko'rsatadi. Binobarin, bu sabablar harakatini aniqlash juda ham murakkabdir.

SHu sababli asosiy va hal qiluvchi sabab va omillar tafsirini aniqlash kerak. SHunday qilib, tahlilning dastlabki sharti xo'jalik faoliyatiga tafsir etuvchi sabablarni iqtisodiy belgilariga qarab to'g'ri turkumlashzarur.

Mehnat omillariga korxonaning ishchi kuchi bilan tahminlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdarligi kiradi.

Mehnat vositalari omillariga esa korxonaning asosiy fondlar bilan qay darajada tahminlanganligi, ularning hajmi, strukturasi (tuzilishi), o'sish surhatlari, texnik holati va ulardan foydalanishning samaradorlik darajasi singari masalalar kiradi.

Mehnat predmetlari omillariga korxonaning xom- ashyo va asosiy materiallar bilan tahminlanganligi, ulardan foydalanish, samaradorlik darajasi kabi masalalar kiradi.

Barcha omillar bir-biri bilan bog'liqlikka ega, ammo iqtisodiy tahlilning shartiga ko'ra ularni shartli ravishda guruhlarga ajratilib, har bir omilni tafsir etish darajasi alohida aniqlanadi. CHunki, yuqorida sanab o'tilgan omillar o'ziga xos mustaqil mahnoga ega bo'lishi bilan birga o'zaro bir-birlari bilan uzviy bog'langanlar. Binobarin, bu omillarning tafsirini mexanik tarzda bir-biriga qo'shib ham bo'lmaydi. Masalan, mehnat unumdarligining o'sishi ishchilarining ish vaqtidan samarali foydalanishga, ishchilarining kasbiy malakasiga bog'liq (mehnat omillari). So'ngra, mehnat unumdarligi korxonaning asosiy vositalar bilan tahminlanish darajasiga, asosiy vositalarning texnik holatiga va ulardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq (mehnat vositalari omillari). Nihoyat, mehnat unumdarligining o'sishi moddiy resurslardan samarali vatejamli foydalanishga (mehnat buyumlari omili) bog'liq.

Demak, avval har bir omillar guruhi alohida-alohida o'rganiladi. So'ngra uchchala omillar guruhini tahlil qilish asosida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi yig'ma (komplekt) rezervlar (imkoniyat) to'g'risida umumiyl xulosa beriladi. Har bir omillar guruhi, o'z navbatida, miqdor (ekstensiv) va sifat (intensiv) ko'rsatkichlarga bo'linadi. Miqdor ko'rsatkichi-resurslarning mavjudligini ko'rsatsa, sifat ko'rsatkichi esa, resurslardan samarali foydalanishni ko'rsatadi. Avval miqdor, so'ngra sifat ko'rsatkichlarning tafsiri o'rganiladi. CHunki, korxonada ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmiga tafsir qiluvchi omillar tafsirini miqdor va sifat jihatdan hisoblash asosiy masala hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korxonalar faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiy tahlil muhim vazifalarni bajaradi. Jumladan, tahlil olib borish natijasida biznes-rejaning qanchalik xayotiy ekanligi o'r ganiladi va ilmiy jihatdan asoslanganligiga baho berish imkoniyati yaratiladi. Bu korxona faoliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratib, kelajak ishlarni rejalashtirishda oldingi biznes rejada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni takrorlamaslik imkoniyatini beradi. Bundan tashqari biznes rejani ilmiy jihatdan asoslanganligiga erishiladi.

Korxonani iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, korxona iqtisodiyotini rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar bazasini aniqlash imkonini beradi. Bu o'z navbatida korxona mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Yahni joriy rejada bugungi kunda mavjud mablag'lardan samarali foydalanish rejasи ishlab chiqilsa, istiqbol rejada korxonaga kelajakda mablag' jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, bu orqali korxonani rivojlantirish istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi.

Biznes-rejasining bajarilishiga obhektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog'liq va bog'liq bo'lman omillar va sabablarni bir-biridan ajratib aniqlash ham korxona faoliyatini rivojlantirishga tahsir qilayotgan omillar tahlilini olib borish va bu orqali korxona faoliyatini rivojlantirish istiqbollarini belgilash uchun xizmat qiladi.

Ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash orqali esa yuqorida tahlil qilib o'tkanimizdek, ichki imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali, ortiqcha xarajatlarni iqtisod qilgan holda, ishlab chiqarishni ko'paytirish yahni korxona faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Korxonalarning xo'jalik faoliyatida kutiladigan natijalarni oldindan aniqlash esa bozorga kirib bora olish imkoniyatini baholashga xizmat qiladi. Bu bilan ushbu faoliyat turi yoki ushbu turdagи maxsulotni ishlab chiqarish maqsadga muvofiqmi yoki yo'qmi kabi savollarga javob olish mumkin bo'ladi. Bu esa kelajak istiqbol rejani to'g'ri belgilash orqali korxona faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil materiallariga asosan esa ishlab chiqarishda aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va bu tadbirlarni amalga oshirish orqali korxona faoliyatini rivojlantirishni yangi bosqichlariga olib chiqish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, eksportbop mahsulot yaratish, ichki bozorni sifatli va milliy mahsulot bilan boyitish, qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.

- Шоалимов А.Х., Илхамов Ш.И., Тожибоева Ш.А. Иқтисодий таҳлил ва аудит. Дарслик. – Т.: Сано-Стандарт нашриёти, 2017.
- Шоалимов А.Х. Тожибоева Ш.А. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. – Т.: Иқтисодиёт, 2019. -235 б.

3. Б.Хасанов, М.Рахимовларнинг умумий таҳрири остида. Молиявий таҳлил. Дарслик. –Т.: –Иқтисодиёт|| 2019. -736 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси-Т.:Ўзбекистон, 2019.- 46 б.
5. Ваҳабов А.В. ва бошқалар. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. –Т.: Иқтисод-молия, 2013. - 600 б.
6. Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Иқтисодий таҳлил. Ўқув қўлланма. –Т.: ПринтЛине-груп, 2017. -396 б.
7. Муйдинов Б.Н. Иқтисодий таҳлил ва аудит. Ўқув қўлланма. -А.: Step by step print, 2023. -172 б.